

UDK 910.2

**REKREATSIYA VA TURIZM GEOGRAFIYASIDAGI
TADQIQOTLARNING NAZARIY MASALALARI
VA ULARNI TADQIQ ETISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR**

Boymurodova Xusniyabonu Burxon qizi,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktranti
e-mail: boymurodovaxusniya654@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15170608>

Annotatsiya: Ushbu maqolada rekreatsiya va turizm geografiyasidagi tadqiqotlarning nazariy masalalari hamda ularni o‘rganishda qo‘llaniladigan innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Rekreatsiya va turizm geografiyasi sohasida ilmiy izlanishlar olib borishda zamonaviy metodologik asoslar, model va konsepsiyalar muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotda geografik axborot tizimlari (GAT), raqamli kartografiya, sun‘iy intellekt va big data texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati batafsil yoritiladi. Shuningdek, turizm va rekreatsiyaning hududiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar, ekologik barqarorlik, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar va innovatsion rivojlanish strategiyalari tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqot natijalari turizmni rejalashtirish, rekreatsion hududlarni boshqarish hamda barqaror turizm siyosatini shakllantirish uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Rekreatsiya geografiyasi, turizm geografiyasi, nazariy masalalar, innovatsion yondashuvlar, geografik axborot tizimlari (GAT), raqamli kartografiya, sun‘iy intellekt, big data, ekologik barqarorlik, hududiy rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, barqaror turizm, turistik rejalashtirish, rekreatsion hududlarni boshqarish

Kirish. Keyingi yillarda zamonaviy geografiya fanlari tizimida ijtimoiy sohalarga e’tibor kuchaymoqda. Jamiyatning rivojlanishini turli xil fanlar va ularning yutuqlarisiz tasavvur etish qiyin. Shu nuqtai nazardan fanlar tizimida geografiya fani ham o‘z mavqeiga ega va uning taraqqiyotida ko‘plab yangi-yangi tadqiqot va izlanishlar bo‘lishi tabiiy holatdir. Bu o‘z navbatida, geografiyaning o‘ziga xos sohalaridan biri bo‘lgan rekreatsiya va turizm geografiyasi oldiga yangidan-yangi muammolarni qo‘ymoqda.

Asosiy qism. Rekreatsiya tushunchasi chet ellik va mahalliy geograf olimlar tomonidan talqin qilingan bolib, ular bir-biriga o‘xshashdir. **Rekreatsiya** - rekreatsiya - fran. - dam olish, hordiq chiqarish; polyak. rekreacja - dam olish; lotin. recreation - kuch quvvatni tiklash, dam olish; bo‘lib N.F.Reymers (1994), bularga qo‘shimcha tarzda insonning salomatligi va mehnat qobiliyatini tiklashi o‘zining yashash joyida emas, balki tashkil etilgan èki tashkil etilmagan sayyohlik safarlarida yoki mehnat ta’tili vaqtini maxsus dam olish maskanlari (sanatoriya, dam olish uylari va b.)da o‘tkazishini qayd etadi. Boshqa manbalarda (Geografiya segodnya. M. 1984, s. 124) rekreatsiya - dam olish, bo‘sh vaqtdan foydalanishning har qanaqa shakllari ekanligi

ta'kidlanadi. AQSH milliy turizm siyosiy tadqiqotlar markazi - *rekreatsiya* terminini quyidagicha izohlaydi; **rekreatsiya** - kishilarning bo'sh vaqtlaridan ongli ravishda foydalana bilish faoliyati. Rekreatsiya sust (passiv) yoki faol hamda alohida va guruhlar ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. Odamlar ko'p jamlangan, ko'p qavatli uylar va binolarda charchab toliqqan, sershovqin yirik shaharlarda yashovchilar uchun dengiz bo'ylarida, tabiat qo'ynida hordiq chiqarish katta ta'surot qoldiradi, ularning quvvatlarini tiklaydi. Hordiq chiqarish, sarflangan kuch-quvvatni tiklashning eng yaxshi usuli - bu barcha yoshdagi insonlar uchun imkonli bo'lgan tabiat quchog'ida faol dam olishdir. Insonlardagi mo'tadil tabiiy yuk, tabiat bilan o'zaro muloqotdagi ijobiy hissiyotlar asab sohasi, yurak-qon tomirlari, mushaklar hamda nafas olish tizimlari faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu tufayli *rekreatsiya faoliyati* - bu rekreatsiya talablarini qondirishga yo'naltirilgan inson hayot faoliyatining asosiy turi hisoblanadi. Biz ham rekreatsiya deyilganda, insonlarning dam olishlari va sog'liqlarini tiklashi maqsadida o'zining yashash joylaridan chiqib, tabiat quchog'ida, sog'lom turmush tarziga amal qilgan holda bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishlarini tushunamiz. Rekreatsiya turizmning tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. *Rekreatsiya (tiklash, o'rnini to'ldirish)* ning qamrovi katta bo'lib, odamning mehnat qilgandan so'ng dam olishi, sog'ligini tiklashi, madaniy hordiq chiqarishi ma'nosida ishlatiladi (Rafiqov, Azimov, 2000).

Rekreatsiya (polyakcha rekreacja-dam olish, lotincha recreatio-tiklanish), u 1) tanaffus, bayramlar, ta'tillar; 2) dam olish inshooti; 3) dam olish, insonning mehnat jarayonida sarflangan kuchini qayta tiklash ma'nolarini anglatadi (Vahobov, 2008).

A.N.Nig'matov (2019) ta'biricha, —... *rekreatsiyani* shaxsning dam olishi va hordiq chiqarishi maqsadida uyushtiriladigan alohida sayyohlik turi deb, ajratish maqsadga muvofiqdir (16-b.). Bu jihatdan u ekoturizm va ziyorat turizmlariga yaqin hamda bir-birlarini to'ldirib turadi. Buni A.Nizomov va b. (2014) tomonidan ekoturistik resurslarni tasniflashga oid ishlari ham isbotlaydi (21-24-b.). Chunki, unda ajratilgan ekoturistik resurs turlarining aksariyati rekreatsiya resurslari sifatida e'tirof etiladi.

D.Nikolayenko (2000) ham rekreatsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berib o'tgan. *Rekreatsiya* (dam olish) - insonning doimiy yashash joyida ham, undan tashqarida ham amalga oshirishi mumkin bo'lgan inson kuchlarini tiklashga qaratilgan har qanday faoliyat degan.

2. Tadqiqotlarda innovatsion yondashuvlar

Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar rekreatsiya va turizm geografiyasidagi tadqiqotlarni yanada takomillashtirishga imkon beradi. Quyida eng samarali innovatsion usullar keltirilgan:

2.1. Geografik axborot tizimlari (GAT) va raqamli kartografiya

- Turistik va rekreatsion zonalarini kartografik modellashtirish
- Sayyohlik oqimlarini tahlil qilish va prognoz qilish
- Turizm resurslarini geografik taqsimot asosida baholash

2.2. Sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalari

- Turizm tendensiyalarini tahlil qilish va prognozlash
- Sayyohlarning xatti-harakatlarini modellashtirish
- Mijozlarning talablari asosida moslashtirilgan turistik xizmatlarni ishlab chiqish

2.3. Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR)

- Virtual sayohatlar va raqamli ekskursiyalar
- Turistik obyektlarning 3D modellashtirilishi
- Sayyohlar uchun interaktiv yo‘lko‘rsatkichlar va qo‘llanmalar

2.4. IoT (Internet of Things) va aqlli turizm tizimlari

- Aqlli turistik shaharlar va aqlli mehmonxonalar tizimi
- Transport va sayyohlik xizmatlarining avtomatlashtirilgan boshqaruvi
- Turizm xavfsizligini ta'minlash uchun real vaqt rejimida monitoring tizimlari

3. Innovatsion yondashuvlarning amaliy qo‘llanilishi

Innovatsion texnologiyalar va yondashuvlar quyidagi yo‘nalishlarda muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin:

- **Ekoturizm va barqaror turizmni rivojlantirish** – ekologik toza va barqaror turistik yo‘nalishlar yaratish.
- **Shahar turizmni rejalashtirish** – yirik shaharlar uchun aqlli sayyohlik tizimlarini ishlab chiqish.
- **Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va targ‘ib qilish** – VR/AR texnologiyalari orqali tarixiy yodgorliklarni saqlash va ommalashtirish.
- **Tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmi** – raqamli tahlillar va shaxsiylashtirilgan xizmatlar orqali turizm sektorini rivojlantirish.

Xulosa. Rekreatsiya va turizm geografiyasidagi tadqiqotlarning nazariy masalalari hamda ularni tadqiq etishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada rekreatsiya va turizm geografiyasining asosiy nazariy tamoyillari, ularning rivojlanish omillari va zamonaviy ilmiy tadqiqot usullari tahlil qilinadi.

Tadqiqot davomida turizm va rekreatsiya jarayonlarini o‘rganishda innovatsion yondashuvlarning o‘rni va samaradorligi yoritiladi. Xususan, raqamli texnologiyalar, geografik axborot tizimlari (GAT), sun'iy intellekt va katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanishning afzalliklari ko‘rsatib beriladi. Shuningdek,

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

turizm geografiyasida barqaror rivojlanish tamoyillarini tadqiq etish va ulardan amaliyotda foydalanish masalalariga ham e’tibor qaratiladi. Maqolada ilgari surilgan ilmiy xulosalar turizm va rekreatsiya geografiyasini chuqurroq o‘rganishga, yangi ilmiy g‘oyalarni ilgari surishga hamda ushbu sohada amaliy natijalarga erishishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish turizmni boshqarish, mintaqaviy rivojlanish va ekologik muvozanatni saqlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi ta’kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajakni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. Xalq so‘zi, №24. 2018 yil 6 fevral.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Kirish turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari” PQ. Xalq so‘zi gazetasi, №25. 2018.
5. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasini qonun xujjatlari to‘plami, 2017. 6-son. 70-modda.
6. Abdulqosimov A.A., Abdurahmonova Y.X., Davronov K.Q. Zarashon botig‘i voha landshaftlari va geoekologiyasi. Monografiya. T.: Iqtisod-Moliya, 2017. 304 b.
7. Abdulkasimov A. Voprosi klassifikatsii antropogennix landshaftov Sredney Azii. //Nauch. zap. Voronejsk. otd. Geog. ob-va SSSR. Voronej, 1966. S.26-30.
8. Abdulkasimov A. Problemi izucheniya mejgorno-kotlovinnix landshaftov Srdney Azii. T.: Fan, 1983. 126 s.
9. Abdumalikov R. Turizm. T.: O‘qituvchi, 1978. -90 s.
10. Alibekov L.A., Alibekova S.L., Ismoilov Sh.O. O‘zbekistonning rekreatsion imkoniyati, tog‘ va tog‘oldi mintaqalarida xalqaro turizmning rivojlantirish istiqbollari. //O‘zbekiston Geografiya jamiyati axborotnomasi. 51-jild. T.: 2017, 18-23 b.
11. Alibekov L.A. Xalqaro tog‘ turizmi. O‘zbekiston ovozi gazeatasi. 2018 yil, 6- noyabr.